

Date: 9th December-2025

O'ZBEKISTONDA MOTURIDIYLIK AN'ANALARINI TIKLASH VA
BAG'RIKENGLIK SIYOSATI

Raximov Sherbek Kamolovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Maxsus fanlar sikli o'qituvchisi, mayor

rahimovserbek305@gmail.com

+99899-798-59-70

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. O'zbekistonda yashayotgan 130 dan ortiq millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish, turli millat vakillarining tili, madaniyati, urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar yaratish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Zero, yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti, tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir.

Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglikning huquqiy asolari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy siyosatni muvofiqlashtiruvchi qonunlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan demokratik tamoyillariga tayanadi.

O'zbekiston hukumati turli millat va dinlarga mansub mamlakat fuqarolari uchun o'z e'tiqodlarini amalga oshirish borasida zarur shartsharoitlarni yaratib berishga diniy qadriyatlarni asrab-avaylashga, jamiyatimizda dinlar va ular millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga va ular o'rtasidagi do'stlikni rivojlanishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi." deb qat'iy belgilab quyilgan. [O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. 33-b]

Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mulohazalariga e'tibor qaratsak: "Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjixatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotga o'zining to'liq ifodasini topdi". [Mirziyoev Sh. Respublika baynalmilal markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqidan. 24.01.2017]

O'zbekistonda barcha millatlarga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.



Date: 9th December-2025



Mamlakatimizda 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Davlat ta'lim muassaslarida o'qitish 7 tilda olib borilmoqda. O'zbekiston teleradilkompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etmoqda, o'ndan ortiq tilda gazeta va jurnallar nashr etilmoqda. Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz etakchi rol o'ynamoqda. Ular o'zlarining o'ziga xos madaniyati, tili, xalq hunarmandchiligini rivojlantirib, turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitishga, har birimizda ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shmoqda. Barchangizga ma'lumki, hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, millatchilik, diniy murosasizlik bosh ko'tarmoqda. Bu illatlar davlatni 186 emirib, jamiyatni parchalab. Radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda. Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osiyishtalikning mustahkam kafolati, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. [Rashidov O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. O'quv qo'llanma. 2022-y. 185-b]

Mamlakatimizda milliy va diniy qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, buyuk allomalarning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish va targ'ib qilish, jamiyatda diniy bag'rikenglikni yana-da mustahkamlash maqsadida o'ziga xos amaliy mexanizmlar – O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Hadisshunoslik oliy maktabi, hadis, kalom, tasavvuf, aqida, fiqh ilmiy maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Asosiy maqsad, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi alloma ajdodlarimiz merosini ilmiy o'rganishni yana-da faollashtirish, muqaddas dinimizni turli tahdidlardan himoya qilish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarni insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4802-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 06-noyabrdagi "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 693-sonli qarori asosida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzurida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining asosiy maqsadi mutafakkir olim, moturidiylik ta'limoti asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiy va uning izdoshlari merosini chuqur o'rganish, ularning aqida va kalom ilmi rivojiga qo'shgan hissasini tadqiq etish va keng targ'ib qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu umuminsoniy g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularda ma'naviy va ma'rifiy qarashlarga yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi mafkuraviy

Date: 9th December-2025

immunitetni kuchaytirishdan iborat, etib belgilandi. [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4802-sonli qarori. 2020-yil 11-avgust]

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi allomalarning kalom ilmi rivojiga qo'shgan hissasi va uning taraqqiyotida tutgan o'rnini chuqur tadqiq etish, yosh avlodni millatlararo va dinlararo bag'rikenglik, o'zaro hurmat, tinchlik-totuvlik kabi islom dinining asl qadriyatlari ruhida tarbiyalash, "jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida islom dinining ilm-ma'rifat, ma'naviy poklik, tinchlik-osoyishtalik, taraqqiyot va bunyodkorlikka chaqiruvchi g'oyalarini xalqqa, ayniqsa, yoshlarga yetkazish, mutaassiblik, ekstremizmning maqsadlari, g'oyaviy negizlari, zamonaviy ko'rinishlari va faoliyat uslublarini o'rganish hamda ularga qarshi kurashishning ilmiy-ma'rifiy asoslarini ishlab chiqib, amaliyotda qo'llab kelmoqda.

Mamlakatimizda buyuk mutafakkir ajdodimiz, aqida ilmi rivojiga ulkan hissa qo'shgan Imom Abu Mansur Moturidiy va u asos solgan moturidiylik ta'limotini o'rganishga alohida ahamiyati berilishi diqqatga sazovordir. Hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmasdan kelayotgan mazkur ta'limotning bugungi kundagi o'rni va ahamiyati haqida muhtaram yurtboshimiz: "Moturidiy ta'limoti ilm egallash jarayonida bag'rikenglik g'oyasi asosida inson aql-zakovatining o'rni va ahamiyatiga yuksak e'tibor qaratadi. Bu o'z navbatida ushbu ta'limotning keng ommalashuvida muhim o'rin tutgan. Bunday g'oyalarga bugungi kunda ham insoniyat katta ehtiyoj sezmoqda", deb ta'kidlagan edi. [Karimov J. "O'zbek moturidiyshunosligidagi ulkan tarixiy voqelik" maqolasi. <https://www.muslim.uz/> 19.04.2025-y]

Hozirgi kunda bag'rikenglik muammosi butun dunyoda dolzarb muammo sifatida topilib, tegishli xalqaro tashkilotlarda muhokama qilinmoqda. Chunonchi, YUNESKO bag'rikenglikni shakllantirish yo'lida muhim ishlarni amalga oshirmoqda. Uning Parijdagi qarorgohida 1993-yili bag'rikenglik bo'linmasi tuzilgan. Oradan ikki yil o'tib (1995-yil 16-noyabrda) YUNESKO Bosh Konferensiyasi "Declaration of princip lesson tolerance"ni tasdiqladi. Bu hujjatni 185 ta davlat, shu jumladan O'zbekiston ham imzoladi. Deklaratsiya milliy, etnik, diniy va til guruhlariga nisbatan zo'ravonlik, yotsirash va kamsitishning yalpi avj olishiga qarshilik ko'rsatishi lozim. Bu hujjatni milliy va xalqaro darajalardagi ekstremistik-terrorchilik omilining oldini olish, uni bartaraf etish va tugatishning g'oyaviy-uslubiy asosi deb hisoblash mumkin. O'sha paytdan beri 16 noyabr kunini har yili xalqaro bag'rikenglik yili sifatida nishonlanishi odat tusiga kirib qoldi. Shu kuni butun dunyoda sabr-toqat va hamjihatlikni targ'ib qilishga bag'ishlangan qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. [Rashidov O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. O'quv qo'llanma. 2022-y. 33-b]

Xulosa o'rnida, O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillardan boshlab millatlararo totuvlik va bag'rikenglik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirildi. Bu yo'nalishda amalga oshirilgan islohotlar turli millat va konfessiyalar vakillarining tinch-totuv yashashiga, o'z milliy, diniy qadriyatlarini erkin saqlash va rivojlantirishlariga mustahkam zamin yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan vijdon erkinligi kafolati esa bu jarayonning huquqiy asosini tashkil etadi.



Date: 9th December-2025



Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat vakillari birgalikda yashab, o'z madaniyati, urf-odatlar va tillarini erkin rivojlantirmoqda. Davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar, milliy madaniy markazlar faoliyati, ko'p tilli ta'lim va OAV ko'rsatuvlari millatlararo uyg'unlik va bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishi ham moturidiylik ta'limoti asosida bag'rikenglik, ilm-ma'rifat va dinlararo hamjihatlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslardan biridir. Bu markaz orqali Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy kabi buyuk allomalar merosi o'rganilib, yoshlarga ma'naviy immunitet beruvchi g'oyalar targ'ib etilmoqda.

Xalqaro miqyosda, xususan YUNESKO tomonidan qabul qilingan "Bag'rikenglik prinsiplari Deklaratsiyasi" O'zbekiston tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu esa mamlakatimizning global miqyosda ham bag'rikenglik, tinchlik va hamjihatlik tamoyillarini ilgari surayotganini ko'rsatadi.

Shu asosda aytish mumkinki, O'zbekistonning millatlararo totuvlik va bag'rikenglik borasidagi siyosati nafaqat mamlakat ichida barqarorlik va taraqqiyot garovi, balki xalqaro maydonda ham hurmat va e'tibor qozonishiga xizmat qilmoqda. Bu yo'nalishda olib borilayotgan chora-tadbirlar kelajakda ham mustahkam ijtimoiy birdamlik va ma'naviy uyg'unlik asosida rivojlanib borishiga ishonch uyg'otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4802-sonli qarori. 2020-yil 11-avgust.
3. Mirziyoev Sh. Respublika baynalmilal markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqidan. 24.01.2017-y.
4. Rashidov O. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022-y.
5. Karimov J. "O'zbek moturidiyshunosligidagi ulkan tarixiy voqelik" maqolasi. <https://www.muslim.uz/> 19.04.2025-y.